



O‘ZBEKISTON, TURKMANISTON VA OZARBAYJON MAMLAKATLARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARDA YANGI DAVRNI BOSHLAB BERGAN TARIXIY UCHRASHUV

Boshlanishi 1-betda



Yakunda davlatimiz rahbari ilgari surilgan tashabbuslar va erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish uchun “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash, shuningdek, asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha vazirlarning qo‘shma uchrashuvlari mexanizmini ishga tushirishni taklif qildi.

Muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev Qo‘shma bayonot qabul qildilar.

Yetakchilar huzurida transport va logistika, kemasozlik va fuqaro aviatsiyasi sohasida hamkorlik to‘g‘risida memorandumlar, Tovar-xomashyo birjalari o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida bitim va boshqa hujjatlar imzolandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev muzokaralar yakunida ommaviy axborot vositalari uchun bayonot berdilar.

Prezidentimiz uch mamlakat xalqlari manfaatlarini yo‘lida strategik sheriklikni rivojlantirish borasidagi qat’iy siyosiy irodani yaqqol namoyon etgan uchrashuvning samarali yakunlarini yuksak baholadi.

Muzokaralarda tranzit yo‘laklarini rivojlantirish, jumladan, Turkmanboshi va Boku portlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, zamonaviy logistika infratuzilmasini birgalikda shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan ta’kidlandi.

Milliy transport tizimlari integratsiyasini chuqurlashtirish maqsadida mintaqadagi mavjud va istiqbolli yo‘nalishlarni o‘zaro bog‘lash rejalari atroflicha muhokama qilindi. O‘zbekiston bu borada o‘zaro muvofiqlashgan siyosat yuritish tarafdori ekani ta’kidlandi.

Bu, birinchi navbatda, xalqaro bozorlarga chiqishda biznes uchun qulay sharoitlar yaratish va tarif siyosati masalalaridir.

Kaspiy dengizi orqali logistika infratuzilmasi va parom tashuvlarini rivojlantirish loyihalari ustida birgalikda ishlash bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Bundan tashqari, uch mamlakat o‘rtasida energetika sohasida — uglevodorod konlarini o‘zlashtirish va ishlab chiqarilgan elektr energiyasini eksport qilish bo‘yicha hamkorlik imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Tovar ayirboshlash hajmini karrasiga oshirish va sanoat kooperatsiyasi ko‘lamini kengaytirish vazifalari muzokaralar kun tartibidan markaziy o‘rin egalladi.



Milliy ishlab chiqaruvchilarning sifatli mahsulotlarini o‘zaro yetkazib berishni rag‘batlantirish choralari ko‘rilishi hamda uch mamlakat hududlarining salohiyatini jalb etgan holda yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratilishi ta’kidlandi.

Yetakchilar suv resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik tahdidlarga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikni kengaytirishga kelishib oldilar. Bundan tashqari, turizm va madaniy al-mashinuvlar sohasida qo‘shma dastur qabul qilindi.

Qabul qilingan qaror va hujjatlarni amalga oshirish bo‘yicha ishlar vazirlar tomonidan “yo‘l xaritasi” asosida amalga oshiriladi.

Davlatimiz rahbari so‘zining yakunida ushbu tarixiy uchrashuv uch mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirishga, barqaror savdo, transport va energetika yo‘laklarini yaratishga, shuningdek, mintaqaviy integratsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilishini alohida ta’kidladi.



Amaliy tashrifning madaniy dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev birgalikda “Avaza” kongress markazi yonidagi maxsus maydonga tashrif buyurdilar.

Oliy martabali mehmonlarga “Galkinish” milliy ot sporti jamoasi axaltaka zotli tulporlarining chiqishlari namoyish etildi.

Dunyoga mashhur “Galkinish” ot sporti guruhi bu yil Monte-Karloda bo‘lib o‘tgan 47-xalqaro sirk festivalida muvaffaqiyatli ishtirok etib, oltin mukofotga sazovor bo‘ldi, shuningdek, Istanbulda bo‘lib o‘tgan Xalqaro etnosport festivalida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Turkman xalqining milliy yetakchisi O‘zbekiston xalqiga chuqur hurmat-ehtirom ramzi sifatida davlatimiz rahbariga to‘kin-sochinlik va farovonlik ramzi bo‘lgan tuyva va bo‘taloqni sovg‘a qildi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonga amaliy tashrfi yakunlandi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

Q A R O R I

XALQARO ZAMONAVIY SAN’AT BIYENNALESINI YUQORI SAVIYADA O‘TKAZISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

b) Xalqaro zamonaviy san’at biyennalesiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish manbalari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Belgilab qo‘yilsinki, Biennale obyektlarida: a) loyihalashtirish va asrashga doir ishlar bo‘yicha Madaniy meros agentligi buyurtmachi hisoblanadi;

b) xorijiy taniqli mutaxassislar bilan hamkorlikda alohida konsepsiya va dizayn asosida obyektlarni badiiy yoritish va asrashga doir ishlarni tashkil etish, infratuzilmalarini yaxshilash, shuningdek, Tasviriy san’at muzeyining yangi ekspozitsiyasini yaratish choralari ko‘riladi.

9. Belgilansinki, Biennale doirasida 2025-yil 31-dekabrqa qadar Jang‘arma va Madaniy meros agentligi tomonidan shakllantiriladigan ro‘yxatlarga asosan va ular belgilagan subyektlar tomonidan import qilinadigan texnika, jihoz, asbob-uskuna, san’at asarlari va ularning qismlari, ashyolar va boshqa tovarlar bojxona bojidan ozod etiladi.

10. Vazirlar Mahkamasi uch kun muddatda birinchi Biennalega tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar

rejasi, moliyalashtirish manbalarini ko‘rsatgan holda xarajatlar smetasini tasdiqlasin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 5-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritilsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi raisi G.O. Umerova hamda Buxoro viloyati hokimi B.K. Zaripov belgilansin.

13. Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 21-avgust

22-avgust kuni Turkmanboshi shahrida “O‘zbekiston — Ozarbayjon — Turkmaniston” formatidagi uch tomonlama birinchi sammit bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev ishtirok etdi.

“O‘zbekiston — Ozarbayjon — Turkmaniston” mintaqaviy hamkorlikning yangi formati Markaziy Osiyo uchun ham, Janubiy Kavkaz uchun ham istiqbolli va ahamiyatli hisoblanadi. Uning ahamiyati nafaqat siyosiy muloqotni kuchaytirish, balki tomonlarning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish hamda tranzit va savdo uchun yangi imkoniyatlar ochadigan transport aloqalarini rivojlantirish bilan ham bog‘liq.

Bu format dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan, transport yo‘laklarini kengaytirish va Yevroosiyo munosabatlaridagi asosiy bog‘in sifatidagi rolini oshirishga intilayotgan O‘zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, sammit doirasidagi o‘zaro hamkorlik “yashil” energetika sohasidagi loyihalarni rivojlantirishga ham qaratilgan bo‘lib, rasmiy Toshkent sheriklikning faol ishtirokchisi va tashabbuskori sifatida chiqish niyatida.

Xalqaro ekspertlar ta’kidiga ko‘ra, ushbu formatning ahamiyati ikki mintaqaga chegaralaridan ham chiqib, kengroq xalqaro hamkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi va butun Yevroosiyo makonining geoiqtisodiy arxitekturasiga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘ZBEKISTON, TURKMANISTON VA OZARBAYJON YANADA YAQIN HAMKORLIKNI YO‘LGA QO‘YISH VA YEVROOSIYODA O‘SISH NUQTALARINI TOPISH ISTAGINI NAMOYISH ETMOQDA

Xorijiy ekspertlar Turkmanistonning “Avaza” milliy turistik zonasida bo‘lib o‘tgan uch tomonlama uchrashuv yakunlari haqida



Antonio ALONSO, San-Pablo universiteti professori, Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha mutaxassis:

— Xalqaro munosabatlarni kuzatuvchi mutaxassis sifatida O‘zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamaligidagi ishonchli va uzoqni ko‘ra oladigan hamkor sifatida o‘z mavqeiini ishonch bilan mustahkamlab borayotganini alohida ta’kidlamoqchiman. So‘nggi yillarda aynan uning siyosiy irodasi bilan O‘zbekiston — Turkmaniston va O‘zbekiston — Ozarbayjon munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Imzolangan strategik hujjatlar, muntazam uchrashuvlar va qo‘shma loyihalar mustahkam huquqiy asos yaratib,

hamkorlikni chuqurlashtirish uchun keng istiqbollarni ochdi.

Ayniqsa, strategik yo‘nalishlar — energetika, transport-logistika, sanoat kooperatsiyasi va qishloq xo‘jaligi sohaslarida amaliy hamkorlikka e’tibor qaratilayotgani alohida ahamiyat kasb etadi. Bunga qo‘shma korxonalar, yirik infratuzilma loyihalari va hatto “Markaziy Osiyo — Ozarbayjon — Yevropa “yashil” energiya yo‘lagi”ni ishga tushirish misol bo‘la oladi. Bu nafaqat yetakchilarning uzoqni ko‘ra bilishini, balki ekologik barqarorlikni ta’minlash global ustuvor vazifaga aylanib borayotgan zamonamizning muammolariga ham javob beradi.

Iqtisodiy sohada erishilayotgan natijalar hayratlanarli. O‘zbekiston balki Turkmaniston va Ozarbayjon o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi jadal sur‘atlar bilan o‘sib bormoqda, yuzlab qo‘shma korxonalar, kapitali million dollarlik samoyaviy kompaniyalar yangi tashabbuslar uchun ishonchli platforma bo‘lib xizmat qilmoqda. Bularning barchasi nafaqat o‘z davlatini rivojlantirish, balki Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkazda yagona farovonlik makonini yaratishga intilayotgan Prezident Shavkat Mirziyoyevning faol va izchil siyosati bilan bevosita bog‘liq.

Biroq biz gumanitar komponent haqida unutmasligimiz kerak. Xalqlar o‘rtasidagi iliq rishtalar — musharak tarix, madaniyat, an‘analar, buyuk shoir va mutafakkirlar merosiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ma’naviy birlik va o‘zaro ishonchga zamin yaratadi. Madaniyat markazlarini qo‘llab-quvvatlash, festivallar, ijodiy tadbirlar o‘tkazish davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.


Turkmanboshi shahrida bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston — Ozarbayjon — Turkmaniston” sammiti bu yo‘lda muhim qadam bo‘ladi. Bu uch tomonlama hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochadi, strategik manfaatlarini muvofiqlashtirishning qo‘shimcha mexanizmlarini yaratadi va yirik mintaqaviy loyihalarni amalga oshirishda sa’y-harakatlarini birlashtirish imkonini beradi.

O‘zbekiston bu jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylanib, qo‘shnilarini yanada yaqin hamkorlikka ruhlandirib, desak xato bo‘lmaydi. Mazkur sammit nafaqat yetakchilarning uchrashuvi, balki umumiy mintaqamizda tinchlik, barqarorlik va farovonlikni mustahkamlash yo‘lidagi haqiqiy qadamdir.

SUD-HUQUQ ISLOHOTLARINING MANTIQIY DAVOMI: ODIL SUDLOV AKADEMIYASI – KELAJAK POYDEVORI

Munosabat

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda sud-huquq sohasida chinakam mustaqil sud hokimiyatini shakllantirish va nufuzini oshirish, sudlar faoliyatida odil sudlovni amalga oshirish bo‘yicha qonuniylilikni ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.



Prezidentimizning shu yil 21-avgustdagi “Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ushbu tizimni islohotlarning mantiqiy davomi va muhim bosqichi bo‘ldi.

Mazkur farmon sud tizimi uchun yuqori malakali huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish, ta’lim, ilm-fan va amaliyot uzviyligini ta’minlash orqali professional sudyalarning korporusini shakllantirishga qaratilgan.

Farmon bilan sud-huquq sohasida malakali kadrlar tayyorlashning yangi tizimini joriy etishdagi qator ustuvor maqsadlar belgilab o‘lingan. Sud tizimi uchun har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va zarur kasbiy ko‘nikmalarga ega, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish; sudyalik lavozimiga nomzodlarni tayyorlash, sudya va sud apparati xodimlarining malakasini oshirish, rahbarlik lavozimini egallash uchun xavzadagi sudyalarni qayta tayyorlash, ta’lim oluvchilarda sudyalik kasbiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish shular jumlasidan. Shuningdek, bo‘lajak sudyalarda mustaqil, xolis, beg‘araz, faqat qonunga tayyangan holda va adolat bilan ish yuritishning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interfaol o‘qitish uslublarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish va boshqalar nazarda tutilgan.

Farmonga ko‘ra, Sudyalari oliy maktabi negizida O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi tashkil etilmoqda. Albatta, bu shunchaki nom o‘zgarishi emas, balki sud tizimi xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimini butunlay yangi, sifatli bosqichga olib chiqishga qaratilgan strategik islohotdir.

Xususan, akademiyada ta’lim jarayoni “ustoz-shogird” an‘anasi asosida, “bo‘lajak sudyani sudya o‘qitadi” tamoyiliga muvofiq tashkil etiladi. Bu esa, o‘z navbatida, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uzviy bog‘lash, yosh kadrlarning sudyalik faoliyatidagi nozik jihatlarini tajribali ustozlardan o‘rganishini ta’minlaydi.

Endi sudyalik lavozimiga nomzodlar akademiyaning olti oylik kasbiy qayta tayyorlash kurslarida davlat granti asosida tayyorlanadi. Bu jarayonda kasbiy qayta tayyorlash kurslariga



Akbar TOSHQULOV, adliya vaziri

kirishdan oldin nomzodlarning benoqson obro‘-e’tibori, halolligi va layoqati Sudyalari oliy kengashi tomonidan o‘rganiladi. Bu esa, o‘z navbatida, sudyalik lavozimiga faqat yuksak axloqiy fazilatlariga ega, vijdonli va halol nomzodlar tanlab olinishini ta’minlaydi.

Yana bir muhim jihat mavjud: sudyalik lavozimiga nomzodlarni tayyorlash dual ta’lim shaklida, “nazariya — amaliyot — imitatsiya” tamoyili asosida tashkil etiladi. Dual ta’lim uslubi tinglovchilarning o‘rttirgan bilimlari amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, qator xorijiy davlatlarda keng qo‘llanadi. Masalan, Germaniyada ham sudyalarni tayyorlashda “ikki bosqichli tayyorgarlik” modeliga tayaniladi. Bunda asosiy e’tibor nazariya va amaliyotning uzviyligini ta’minlashga qaratiladi.

Akademiyaga Oliy sudning “Adolat” axborot tizimlari kompleksidan foydalanish huquqi berilmoqda. Akademiyaning professor-o‘qituvchilari hamda tinglovchilarga sud amaliyotini muntazam tahlil qilish, chiqarilayotgan sud hujjatlarini kuzatib borish imkoni yaratiladi.

Bu esa, o‘z navbatida, sud faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlash, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o‘tkazish, shuningdek, sud-huquq sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, farmon asosida amaliy mashg‘ulotlar deontologik uslubda tashkil etiladi. Bunda tinglovchilar tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlar, advokatura, sud-ekspertiza hamda boshqa davlat organlari va muassasalar faoliyatida bevosita ishtirok etishi ta’minlanadi.

Sud majlislarini real vaqt rejimida kuzatish va sudyaning protsessual harakatlarini tahlil qilish orqali amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida kasbiy qayta tayyorlash kurslarida “virtual sud” mashg‘ulotlari joriy etiladi.

Endilikda bo‘lajak sudyalarda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil etilishi ham muhim yangiliklardan biridir.

Bugungi sudya nafaqat huquqiy bilimga, balki raqamli ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishi talab etiladi. Sun’iy intellektidan xabardor sudyalari ish yuritishda yangi imkoniyatlardan foydalanib, adolatni tez va samarali ta’minlay oladi. Bunday o‘quv kurslarining joriy etilishi O‘zbekistonda sud tizimini dunyo standartlariga moslab rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Farmonning o‘ziga xos yana bir jihati sifatida sudyalari va sud apparati xodimlariga sud-huquq sohasi qonunchiligidagi yangiliklar mazmun-mohiyatini yetkazish, ularning kasbiy bilimlarini takomillashtirish maqsadida majburiy malaka oshirish tizimi belgilanayotganini ko‘rsatish mumkin. Bunda sudyalari muayyan muddatda (ikki, uch yilda) malaka oshirish kurslaridan o‘tishi shart.

Eng muhimi, faoliyat samaradorligi reytingi past bo‘lgan sudyalari uchun navbatdan tashqari, ikki haftadan kam bo‘lmagan malaka oshirish kurslari joriy etiladi. Mazkur tizim sudyalarning o‘z bilim va ko‘nikmasini muntazam yangilab borishini ta’minlaydi. Bu esa odil sudlovning yuqori sifatini kafolatlash uchun juda muhim.

Murakkab toifadagi ishlar bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish ham belgilanmoqda. Bu sudyalarning eng qiyin va chigal ishlarni ko‘rib chiqishda professional salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Farmonga ko‘ra, rahbarlik lavozimiga xavzadagi sudyalari uchun qayta tayyorlash kurslari joriy etiladi. Bu esa sudyalik tizimida kelajak rahbarlarini tizimli tayyorlash, sohada kadrlar almashinuvini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Sudyalari malakasini muntazam oshirib borish xorij amaliyotida ham keng qo‘llanadi. Xususan, AQSHda sudyalari Milliy sud akademiyasi (National Judicial College)da muntazam malaka oshirib borishi talab etiladi.

Shuningdek, Qozog‘istonda ham bu borada samarali tizim yaratilgan. Mamlakat Oliy sudi huzuridagi Sud akademiyasi sudyalarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha asosiy muassasadir.

2026/2027-o‘quv yilidan boshlab akademiyada sud faoliyati mutaxassisligi bo‘yicha amaliy magistratura dasturi asosida o‘qitish joriy etiladi. Bu oliy yuridik ta’lim tizimida yangi bosqich bo‘lib, nazariyani amaliyot bilan uyg‘unlashtirgan holda sud ishlarni yuritish bo‘yicha chuqur bilim va amaliy ko‘nikmaga ega, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlaydi.

Prezidentimizning mazkur farmoni odil sudlovni ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarning mantiqiy va tabiiy davomi sifatida yuqori malakali, halol va adolatli sudyalari korporusini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, O‘zbekistonda sud hokimiyatining mustaqilligi va adolatliligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



Humoyun XON, Xalqaro munosabatlar bo‘yicha ekspert (Pokiston):

— Mazkur sammit butun mintaqaga uchun muhim voqea bo‘ldi. Bunday format uch mamlakatning yanada yaqinroq hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va Yevroosiyo yagona mintaqasidagi shakllantirish istagini namoyish etdi.

Menimcha, transport va logistika sohalari kun tartibida alohida ahamiyatga ega. Kaspiy dengizi orqali barqaror yo‘nalishlarning yaratilishi O‘zbekiston uchun Yevropa bozorlariga chiqish imkoniyatini ochib beradi. Kelajakda bunday aloqa barcha ishtirokchilar uchun foydali bo‘lgan kuchli tranzit koridoriga aylanishi mumkin.

Uchrashuvning siyosiy jihati, menimcha, rasmiy Toshkent, Ashxobod va Boku tashqi siyosatida mustaqillikni namoyish etib, o‘zlarining hamkorlik formatlarini shakllantirishga intilayotganida. Bu mintaqaga global arxitektura tobora faol rol o‘ynay boshlaganidan dalolat.

Men insonparvarlik jihatlariga ham e’tibor qaratmoqchiman. Xalqlarimiz o‘rtasidagi umumiy madaniyat va an‘analar uzoq muddatli loyihalarini barpo etish mumkin bo‘lgan ishonch poydevorini yaratadi.

Umuman olganda, ishonchim komilki, Turkmanboshida bo‘lib o‘tgan sammit uch mamlakat sa’y-harakatlarini birlashtirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi va hamkorlikni rivojlantirish uchun yangi uflarni ochadi. Bu esa mintaqalarimiz farovonligiga muqarrar ta’sir ko‘rsatadi.

“Dunyo” AA



Sherzodxon QUDRATXO‘JA, siyosiy fanlar doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

1991-yilda mustaqillikka erishganimizda xalq og‘ir iqtisodiy meros bilan yuzma-yuz qoldi. Unda bir taraflama yuritilgan, faqat **paxta yakkahokimligiga** suyangan iqtisodiyot bor edi. O‘zbekiston yaqingacha ham o‘zining mebel sanoati, qandolatchilik, texnika va qurilish materiallari ishlab chiqarishiga ega bo‘lishini ko‘z oldiga keltira olmasdi. Sobiq ittifoq parchalaganda odamlar orasida **“Biz endi qanday boqilamiz, qanday qilib hayotimizni davom ettiramiz?”** degan hadiklar kuchaydi. Chunki katta mahsulotlar markaz yoki qo‘shni respublikalardan kelib turardi. Shu bois, mustaqillikning dastlabki yillari xalq uchun juda og‘ir kechdi. Odamlar orasida “Kuz kelsa, yaxshi yashaymiz”, degan kinoyali gaplar tarqalishi ham o‘sha paytda qanday murakkab jarayondan o‘tganimizning isboti edi.

Biz o‘shanda to‘liq ishonch bilan bozor iqtisodiyotiga o‘ta olmadik. Dehqonlarga yer ishonib berilmadi, davlat qaramog‘ida bo‘lgan ishlab chiqarishlar esa xomashyo tanqisligi tufayli to‘xtab qoldi. Bu og‘ir jarayon 20-25 yil davom etdi. Biz qo‘shni davlatlar kabi “shok terapiyasi”dan o‘tmadik. **Milliy valyuta** — so‘mini ham mustaqillikdan so‘ng bir necha yil o‘tib, faqat **1994-yilda joriy etdik**. Bu esa shu ma’noda edi: biz rasman mustaqil bo‘lganimizga qaramay, iqtisodiy jihatdan hali uzoq vaqt mustaqil emasdik.

To‘g‘ri, har bir viloyatda “lider mahsulotlari” yaratilib, ular bilan maqnatildi, chetga eksport haqida balandparvoz gaplar aytildi. Lekin amalda **bizda konvertatsiya yo‘q** edi. Sotilgan mahsulotlar uchun to‘liq va mustahkam dollar kirimini ta‘minlab berolmadik. Shu sababli **chegaralar yopildi, tovar va xizmatlar harakati cheklandi**, mamlakatga keladigan turistlar uchun viza olish ham qiyinlashtirildi. Bu holat xalq ongida **“Sotsializm degani — hamma narsani davlat belgilaydi, davlat boshqaradi, davlat ta‘minlaydi”** degan fikrni saqlab qoldi.

Mustaqillik yillaridagi mashhur besh tamoyildan biri **“iqtisod — siyosatdan ustun”** deb e‘lon qilindi. Amalda esa bizda **na haqiqiy iqtisod, na sof siyosat bor** edi. Iqtisodiy tizim shunchalik izdan chiqqan ediki, hatto banklarda naqd va elektron pullar o‘rtasida katta tafovut paydo bo‘ldi. Plastikdagi pulni naqdlashtirish uchun odamlar 20-25 foiz ustama to‘lashga majbur, bu **“obnalichka”** deb atalgan qora bozorning ochiqdan ochiq yashashi edi.

Kredit olish esa yangi azob, har bir bankning o‘ziga xos **“shapkasini”** bo‘lar, suiste‘molchilik ochiqdan ochiq quloq yovgandi. Odamlar o‘z puliga sotib olayotgan mashinasi uchun ham **“navbat”**da turish bilan birga qo‘shimcha to‘lov, ya‘ni “shapka” berishga majbur bo‘lardi. Ishlab chiqarish, tijorat, hatto oddiy maishiy munosabatlarda ham “otkat”lar hayotning bir qismiga aylanib qolgandi.

O‘sha davlning havosi shunday ediki, odamlar iqtisodiy imkoniyatdan ko‘ra korrupsiya va suiste‘molchilik devoriga duch kelardi. Xalqning mehnatdan olgan haqini adolati sarflash emas, balki ortiqcha xarajat va “yo‘l haqi” bilan qaytarish odatga aylandi.

Prezident tashabbusi — ijtimoiy davlat sari qadam

2023-yilda umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilganidek, O‘zbekiston ijtimoiy davlat maqomiga ega bo‘ldi. Bu davlat siyosatida inson qadriini birinchi o‘ringa qo‘yish degani edi.

Bugun davlat, avvalo, kam ta‘minlangan va kambag‘al qatlamlar, nogironlari bor insonlar, boquvchisidan ayrilgan oilalar, qiynalayotgan va yetimlarga yordam berishni ustuvor vazifa qilib oldi. Ularning hayotini yaxshilash, ro‘zg‘orini yuritish uchun kreditlar taqdim etish, yangi ish o‘rinlari yaratish, jamiyatning to‘laqonli a‘zosiga aylantirish islohotlarning asosiy maqsadi bo‘ldi.

Avvallari pora va tanish-bilishchilik evaziga olinadigan nogironlik ma‘lumotnomalari barham topdi. VKK, “Raysobes” kabi korrupsiyaga moyil tuzilmalar yo‘q qilindi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mutlaqo yangi tuzilma — Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Bu o‘zgarishlar nafaqat ijtimoiy adolati ta‘minladi, balki xalqning davlatga ishonchi va umidini yanada kuchaytirdi.

Har bir davlatning oliy maqsadi — o‘z mustaqilligini mustahkamlash va asrab-avaylashdir. Agar mustaqillikning ilk yillarini birinchi bosqich deb atasak, u davrda asosiy

siyosiy yo‘nalish yopiqlik siyosatiga tayanadi. Ya‘ni “yopiq bo‘lsak, bizga hech kim tahdid qila olmaydi” degan tushuncha bilan mustaqillikni saqlab qolishga harakat qilindi.

Ha, oldingi davrda radikallashuvga yo‘l qo‘yilmadi, lekin shu bilan birga, rivojlanish ham bo‘lmadi. O‘sha yillar “uyqu” rejimida o‘tdi. Odamlarimiz hech qanday rivojlanish bo‘lmayotganini ko‘rib xorijga ketaverdi, ketaverdi, ketaverdi... “Surish kerak” shiori aholi o‘rtasida, ayniqsa, yosh va bilimdonlar qatlami orasida dominant g‘oyaga aylandi.

Ikkinchi bosqich esa tarixiy burilish nuqtasi bo‘ldi. Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatida faoliyat boshlagan ilk kunlaridanoq mustaqillikni saqlash uchun faqat yopiqlik emas, balki ochiqlik siyosati ham samarali ekanini isbotladi. Dunyo bilan muloqotga chiqib, hamkorlik va do‘stlik aloqalarini kengaytirib, yordam olib, yordam berib ham mustaqillikni nafaqat saqlab qolish, balki rivojlantirish mumkinligini amalda ko‘rsatdi.

Bugungi O‘zbekiston misolida yaqqol ko‘ryapmizki: dunyoga ochiq bo‘lish, global hamkorlik maydoniga chiqish, mintaqaviy va xalqaro integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etish mustaqillikni mustahkamlashning yangi, zamonaviy yo‘lidir. Eng muhimi, O‘zbekiston bugun ochiq dunyo siyosatida o‘z so‘zi va nufuziga ega davlat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu ochiqlik siyosati nafaqat mustaqillikni mustahkamlaydi, balki yangi taraqqiyot yo‘lini ham ochib bermiqda.

So‘nggi sakkiz yilda ijtimoiy sohada erishilgan natijalarga nazar tashlasak, ikki muhim masalani alohida qayd etish lozim deb o‘ylayman. Ular mamlakatimizdagi qurilish va “propiska” muammosidir.

2016-yilga qadar Toshkentda ham katta qurilishlar, uy-joy barpo etish ishlari deyarli ko‘rinmasdi. Rasmiy statistikaga murojaat qiladigan bo‘lsak, 1991-yildan 2016-yilga qadar bor-yo‘g‘i 3636 ta ko‘p xonadonli uy foydalanishga topshirilgan. Bu raqam mamlakat miqyosi uchun juda kam. 2017-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda qurilgan ko‘p xonadonli uylar soni esa 12 ming 373 taga yetdi, ya‘ni 4 karra oshdi.

Shu raqamning o‘ziyoq so‘nggi yillarda mamlakatimizda qurilish sohasida qanday mislsiz o‘zgarishlar amalga oshganini yaqqol namoyon etadi. Bugun shaharlarimizda barpo etilayotgan yangi uy-joylar, yo‘llar, ko‘priklar va zamonaviy infratuzilmalar islohotlar qay darajada hayotiy va amaliy samara berayotganining eng yorqin isbotidir.

Uzoq yillar davomida qurilish deyarli bo‘lmagani uchun doimiy “propiska” tizimi ham yopiq holda saqlandi. Bu esa mustaqillik siyosati emas, balki o‘sha yopiq tizim, totalitar tuzumning yana bir qoldig‘i edi. Chunki mustaqil mamlakatning poytaxtiga o‘z xalqi erkin kirolmasa, u haqiqiy mustaqillik emas, balki sobiq ittifoq davridan meros qolgan segregatsiya ramzidir.

Albatta, viloyatlarda ham o‘ziga to‘q, bilimli, zamonaviy fikrlaydigan insonlar ko‘p edi. Ular Toshkentda yashashni, farzandlarini oliy ta‘limga olib kelishni, o‘z mehnati va iqtidori bilan poytaxt taraqqiyotiga hissa qo‘shishni istardi. Bu tabiiy edi. Propiskaning ochilishi esa yangi davrning muhim alomati bo‘ldi. Shu bilan mamlakatda migratsiya jarayonlari tezlashdi.

Migratsiya uy-joy qurilishi, xizmat ko‘rsatish sohalarini keskin rivojlantirdi. Natijada poytaxt aholisining bir qismi shahar markazidan chetraqqa, Bo‘stonliq singari hududlarga ko‘chishni boshladi. U yerda ko‘chmas mulk narxlari oshdi, yangi yerlar ochildi, yangi infratuzilmalar qurildi. Shu bilan birga, Toshkentdagi badavlat insonlar o‘z kapitali va biznesini viloyatlarga olib chiqishga kirishdi. Bugun Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo va boshqa hududlarda chorvachilik, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalariga sarmoya yo‘naltirilmoqda.

Shu tariqa poytaxtda to‘yingan kapital hududlarga chiqdi. Bu esa faqat markaz emas, balki butun respublika rivojlanayotganining yaqqol isbotidir. Eng muhimi, bu jarayon **sotsializmdagidek boqimandalikni** yaratmadi. Chunki **ijtimoiy davlat** degani hamma narsani davlatdan kutish emas, balki har bir insonga imkoniyat eshigini ochib berishdir. Imkoniyat bor joyda esa taraqqiyot ham, adolat ham bo‘ladi.

Biz uzoq yillar davomida rasmiy hujjatlarda kambag‘allar sonini kamaytirib ko‘rsatish, ularni yo‘qdek hisoblash bilan band bo‘ldik. “Kambag‘al” so‘zini ishlatishdan uyaliib, uning o‘rniga “kam ta‘minlangan” degan so‘zni ommalashtirdik. Ammo bir haqiqatni anglashimiz shart: **kambag‘allik abadiy holat emas. U — tranzit bosqich**, harakat va imkoniyat berilsa, inson undan chiqib keta oladi.

Biroq sotsializm asosiga qurilgan kambag‘allik tamoman boshqacha edi. Unda odamlarda boqimandalik kayfiyati kuchaydi,

ijtimoiy passivlik urchidi. Shuning uchun ham u o‘tib ketmaydigan, odamlarni o‘z ichiga tortib qoladigan holatga aylandi. Odamlarning nogironlik nafaqasi olish uchun talashib-tortishishi, davlatdan ortiqcha ta‘ma qilishi — bu holat qanchalar achinarli edi!

Bugun esa vaziyat butunlay o‘zgardi. Yangi O‘zbekistonimiz me‘mori — Prezidentimiz islohotlarining asosida odamlarni boqish emas, balki ularni boqimandalikdan chiqarish g‘oyasi turibdi. Insonga nafaqat nafaqa, balki ish o‘rni, kredit, o‘zini o‘zi band qilish imkoniyati yaratilayapti. Ya‘ni davlatning vazifasi insonga imkoniyat berish, uning qobiliyatini ro‘yobga chiqarish, uni to‘laqonli jamiyat a‘zosiga aylantirishdir.

Tadbirkorlar — yurt taraqqiyotining drayverlari

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda tadbirkorlik salohiyati jadal rivojlanib, yurtimizning iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi omilga aylandi. Bugun O‘zbekistonda yirik biznes va savdo tarmoqlari nafaqat poytaxtda, balki barcha hududlarda xalqqa xizmat qilayotgan, mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shayotgani siri emas.

Masalan, “Korzinka” misoli. Ilgari Zafar Hoshimovning barcha do‘konlari faqat Toshkent bilan cheklangan, u viloyatlarga mablag‘ kiritishga ehtiyohtkorona quragan. Ammo bugungi kunda ushbu tarmoq butun O‘zbekiston bo‘ylab o‘z shoxobchalarini ochdi.

Bu ulkan yo‘l qanday bosib o‘tilganini raqamlar yaqqol ko‘rsatadi: 2016-yilga qadar “Korzinka” tarkibida bor-yo‘g‘i 17 ta do‘kon bo‘lgan bo‘lsa, hozirda ular soni 163 tadan oshdi. Bu orqali davlat budjetiga har yili 1 trillion 325 milliard so‘mdan ziyod tushum kelmoqda. Tarmoqning eng katta yutuqlaridan biri — u 12 mingdan ziyod fuqaroni ish bilan band qilgani, minglab mahalliy tadbirkorlarni esa o‘z mahsulotlarini “Korzinka” rastalarlari orqali xaridorga yetkazish imkoniyati bilan ta‘minlagani bo‘ldi. Bu degani, bir savdo tarmog‘i nafaqat chakana savdoni, balki mahalliy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini ham tubdan jonlantirmoqda.

Bunday misollar juda ko‘p. Ular iqtisodiy o‘shishning asosiy drayverlari sifatida nafaqat ichki bozorni to‘yintirmoqda, balki yangi ish o‘rinlari, sifatli mahsulotlar va shaffof soliq tizimini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda. Shu yillar davomida butun dunyoda kuzatilgan global pandemiya iqtisodiy ko‘rsatkichlarga katta zarba berganini inkor etolmaymiz. Biroq tadbirkorlikning kuchli salohiyati tufayli bu to‘siqlar bosib o‘tiladi. Agar pandemiya bo‘lmaganida, rivojlanish yanada yuqori sur‘atlarda kechishi aniq edi.

Bugun esa Prezidentimizning tadbirkorlarga yaratib bergan eng imkoniyat va imtiyozlari natijasida bu jarayon yangi bosqichga chiqdi. Soliq yuki yengillashtirilishi, kredit siyosati liberalashtirilishi va tadbirkorlikning huquqiy asoslari mustahkamlanishi — bularning barchasi yurtimizda xususiy sektorning davlat taraqqiyotidagi ulushini yanada oshirmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, tadbirkorlar bugungi O‘zbekiston taraqqiyotining haqiqiy harakatlantiruvchi kuchidir. Ular orqali yurtimizda ishlab chiqarish chuqurlashmoqda, yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, xalqimiz turmush sifati yuksalmoqda.

Ana shu xizmatlar yuksak baholalanayotganidan dalolat sifatida joriy yil 20-avgust kuni Prezidentimiz tadbirkorlar bilan uchrashib, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatladi, iqtisodiy erkinlik va soliq imtiyozlari uchun yanada keng yo‘l ochdi. 20 ming tadbirkorning soliq qarzi bilan bog‘liq muammolarini ular kutmagan miqyosda ijobiy hal qilib berdi. Kerak bo‘lsa, yirik tadbirkorlar ko‘kragiga orden va medallar taqdi. Bu bugungi islohotlar davrida tadbirkorlikning qanchalik yuksak qadrlanishi va davlat taraqqiyotidagi begiyo‘so‘midan dalolat.

Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi tadbirkor shaxsini nafaqat iqtisodiy jarayonlar ishtirokchisi, balki yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy ustuni sifatida ko‘rayotganining yorqin ifodasidir. Demak, mamlakatimiz taraqqiyotida tadbirkor davlat va xalqning eng ishonchli tayanchiga aylanmoqda.

Prezidentimiz aytganidek, **“Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini, istiqbolini ta‘minlaydigan kuch bu — tadbirkorlar. Davlatimizni boy qiladigan kuch bu — tadbirkorlar. Xalqimiz, oilalar hayotini farovon qiladigan kuch bu — tadbirkorlar”**.

Bugun noliganlar kimlar va ular nima qilishi kerak?

Barcha davrlar va barcha jamiyatlarda noluvchilar bo‘lgan va hozir ham bor. Amerikada ham, Yevropada ham, Yaponiya yoki Rossiya-da ham ularni uchratish mumkin. Chunki odamlar turlicha fikrlaydi, ularning bilim darajasi, qarashlari va ijtimoiy holatlari ham turlicha.

Haqiqat shuki, dunyoda barcha narsa mukammal emas. Lekin inson tabiati shundayki, u mehnat va harakat orqali o‘z hayotini obod qilishga qodir. Uyini qurishi, atrofini qo‘zallashtirishi, bog‘iga daraxt ekishi, gullar bilan bezashi orqali bu dunyoni o‘zi uchun qimmatli va munosib maskanga aylantira oladi.

Mustaqillikdan keyin bozor iqtisodiyotiga to‘liq o‘tish kechikdi. Shuning ta‘sirida

jamiyatda hali ham sotsializm asoratlari bilan yashaydigan, davlatdan ko‘proq kutadigan, tayyorga havas qiladigan avlod saqlanib qoldi. Bu, ayniqsa, yoshi kattaroq, sho‘ro davrida yashagan insonlardir. Ular o‘tmishdagi arzonchilik, barcha narsaning davlat tomonidan taqsimlanishini sog‘inadi.

Biroq bu holat uchun ularni malomat qilish emas, balki anglash kerak: ularning ongiga sotsializm va kommunizm g‘oyalari chuqur singdirilgan edi. Shuning uchun ularning yangi iqtisodiy munosabatlarga moslashishi qiyin kechadi, bu haqiqat. Ammo hayot talab qiladigan haqiqat shuki, har kim o‘z taqdirining egasi, farovonlikka erishishning eng to‘g‘ri yo‘li esa mehnat, tashabbus va harakatlardir.

Lekin erta tongdan turib, “Mening baxtim va omadim kaliti faqat o‘z ko‘limda” deb ishga otlanadigan insonlar — Jahongir Ortixo‘jayev, Zafar Hoshimov, Farhod Mamatjanov, Bahodir Abdurayimov, Murod Nazarov, Faxriddin Ilyosov, Shuhrat Ergashev, Shavkat Sharipov, Shuhrat Ilhomov, Abdushohim Ismoilov, Hikmat Abdurahmonov, Aliya Musina, Laziz Adhamov kabi ko‘plab tadbirkorlar bor. Ular ishga shunchaki pul topish uchun emas, balki yaratuvchanlik, islohotlar, yangi g‘oyalarni amalga oshirishdan ruhiy quvvat va energiya olish uchun jonu dili bilan kirishadi.

Kimdir esa bu paytda norozilik kayfiyati bilan uyg‘onadiyu ijtimoiy tarmoqlarda barcha “negativ” fikrlarini to‘kib-sochadi. Lekin ishi, tashvishi, mas’uliyati bor odam ijtimoiy tarmoqlarda vaqt yo‘qotib o‘tirmaydi — muvaffaqiyatli insonlarning vaqti ish bilan to‘lgan. Shu bois, ko‘p hollarda “negativ” yozib o‘tiruvchilar hayotini virtual olamga bog‘lab qo‘ygan, o‘z kuchiga ishonmaydigan odamlardir.

Dunyo tajribasi ham shundan dalolat beradi: Ilon Mask, Jek Ma, Stiv Jobs yoki Bill Geys kabi mashhurlar o‘nlab, hatto yuzlab loyihalardan faqat bittasini omadli qilgan, qolganlari omadsizlikka uchragan. Lekin ular hech qachon shahshtidan tushmagan, bargina muvaffaqiyat uchun ham quvongan va yana yo‘l izlashda davom etgan. Shuning uchun ham bugun dunyo tavakkalchi, jasur va pozitiv insonlar atrofida aylanmoqda.

Albatta, Alloh barchani ham tadbirkor qilib yaratmaydi. Lekin shu o‘rinda Amir Temur bobomizning teran so‘zlari yodimga tushadi: **“Ishbilarmon, mardlik va shijoat egasi — tadbirkor va hushyor kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan afzaldir”**. Bu haqiqatni hayotning o‘zi isbotlab turibdi.

Yangi O‘zbekiston Uchinchi Rennessansning poydevori sifatida

Biz o‘tgan asrning turli davrlarida ko‘plab shiorlar ostida yashadik. “Yorug‘ kommunizm yo‘lida”, “Besh yillik rejalar”, “Kolxoz va brigada peshqadamligi bilan” kabi shiorlar muayyan vaqtda jamiyatni ruhlantirdi, odamlarga maqsad berdi. Keyin mustaqillik yillarida ham ma‘naviyat va kelajak haqidagi turli shiorlar maydonga chiqdi. Ular zamon ehtiyojiga ko‘ra ma‘lum ma’noda o‘z vazifasini bajardi, ammo vaqt o‘tishi bilan ko‘pchilik uchun shiorlar so‘zdan nariga o‘tmay qola boshladi.

Xalq Shavkat Mirziyoyev rahbarlikka kelganda, u qanday g‘oya orqali mamlakatni birlashtirishini intizorlik bilan kutdi. Lekin Prezidentimiz boshqalardan farqli ravishda xalqni **yangi shiorlar bilan emas, balki aniq amaliy maqsadlar bilan ruhlantirdi**. Oliy ta‘lim tizimini yaxshi bilgan, ilm ahli ichida yetishgan ma‘rifatparvar rahbar sifatida shunday degan edi: **“Bizga kerak bo‘lgan kelajak bilim bilan, ilm bilan, ma‘rifat bilan yaratiladi”**.

Shuning uchun ham bugun yangi O‘zbekistonning asosiy g‘oyasi Uchinchi Rennessansi bunyod etishdir. Chunki haqiqiy rivojlanish yo‘li keng ko‘lamli islohotlar bilan birga ma‘rifat, ilm va yuksak bilimli avlodni tarbiyalashdan boshlanadi.

Har bir rivojlangan davlat tajribasi shunga daliliki, taraqqiyotning haqiqiy poydevori ilmda. Xitoy bugungi qudratiga tabiiy boyliklari hisobiga emas, balki ilm va texnologiyalarga qaratilgan ulkan sarmoyasi orqali erishdi. Germaniya Ikkinchi jahon urushidagi vayronagarchilikdan sanoat va ta‘lim tizimiga tayanib tiklandi. Nefti ham, gazni ham yo‘q Singapur esa yo‘lini bilimli yoshlar va samarali boshqaruv orqali topdi. Yaponiya ham shunga o‘xshash yo‘ldan bordi, asrlar davomida intizom va bilim bilan qayta tiklandi.

Prezidentimiz ham aynan shu haqiqatni chuqur anglab, yangi O‘zbekistonning kelajagini ilm va ma‘rifat bilan bog‘ladi. Agar o‘tmishda Birinchi va Ikkinchi Rennessans davrlari bo‘lgan bo‘lsa, Uchinchisi ham bo‘lishi tabiiy. Chunki tarix g‘ildirak kabi aylanadi. Bugungi o‘zbek yoshlari — Uchinchi Rennessansning asosiy kuchi. Shu bois, ta‘lim sohasidagi islohotlar birinchi darajali vazifa sifatida belgilandi. Ilgari oliy o‘quv yurtlariga qabul ko‘rsatkichi bor-yo‘g‘i 9 foizni tashkil etardi, u ham ko‘pincha pora va adolatsiz yo‘llar orqali amalga oshardi. Natijada o‘n minglab yoshlar bilim olish imkoniyatsiz qolgan. Bugun esa vaziyat butunlay o‘zgardi: mamlakatimizda 205 ta universitet mavjud, ularning yarmi davlat, yarmi nodavlat va xorijiy universitetlardir.

Toshkent haqli ravishda “talabalar shahri” deb atalmogda. Bir millionga yaqin talaba bugun ilm olyapti. Bu nafaqat mamlakat ichida, balki jahon

miqyosida ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. O‘zbekiston oliy ta‘limi yuqori reytingga kirish va ta‘lim markaziga aylanish sari qadam tashlayapti. Yaqinda xorijiy safarlardan birida o‘zga mamlakat olimlari mendan hayrat bilan “Nega sizlarda universitet ko‘p?” deb so‘radi. Buning javobi aniq: yangi O‘zbekiston bilimga chanqoq, malakali kadrlar yetishtirish yo‘lidan ketyapti.

Eng quvonarlisi, “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali minglab yoshlar Garvard, Stenford, Kembrijd, Yell va Nagoya kabi oliygohlarda tahsil olmoqda. Ular qaytgach, chekkada qolib ketmayapti, balki davlat boshqaruvida, vazirliklarda, yirik agentliklarda faoliyat olib boryapti. Masalan, Alisher Sa’dullayev kabi yoshlar bugun katta mas’uliyatli lavozimlarda ishlayapti. Ular utopik shiorlarga ishonmaydigan, haqiqiy natija va shaxsiy mehnatga suyanadigan avlod.

Biz avval ta‘limdan qo‘rqar edik: odamlar chet elga chiqishini cheklardik, dollar olishni qiyinlashtirdik, chetga chiqish uchun stiker talab qilardik. Endi esa hammasi ochiq: stiker yo‘q, bankdan bemalol dollar olasiz, chet elga chiqish erkin. Qo‘shni davlatlar bilan munosabatlar ochildi. Hozir Pokiston, Hindiston, Bangladesh va qo‘shni mamlakatlardan minglab talabalar O‘zbekistonda o‘qimoqda. Universitetlarda xorijiy professorlar faoliyat olib boryapti. Bu jarayonlarning natijasi tez orada seziladi: bilimli, zamonaviy fikrlaydigan yoshlar davri kelmoqda.

Bobolarimiz aytgan: “Dangasaning yostig‘i tagida rayhon, boyning yostig‘i tagida tikan bo‘ladi”. Ishyoqmas inson tundan tonggacha rayhon isini hidlab uxlaydi, unda mas’uliyat ham, tashvish ham u darajada ko‘p emas. Ishbilarmon inson esa tikan ustida yotgandek, erta turib, o‘z yer-ekinlari, ishchilari uchun qayg‘urib, yanada ko‘proq mehnat qiladi. Taraqqiyotga yetaklaydigan kuchning bosh mezonini faol harakat va bilimga intilishdadir.

Prezidentimizning umidi ham ana shu bobolarimizdek buyuk avlod yetishib chiqishida. Chunki tariximizda Imom Buxoriy, Xorazmiy, Beruniy, Moturidiy, Forobiy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi kabi jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ zotlar yetishib chiqqan. Ulariga faqat faxrlanib qarashgina yetarli emas, balki ularning mashaqqatga tayyorligi, ilimga chanqoqligi, uzluksiz izlanishiga intilishidan ibrat olishimiz zarur. Ulardagi ilm va mehnatga sadoqat ruhi bizda ham uyg‘onmog‘i, yangi avlodni harakatga undashi kerak. Prezidentimizning barcha islohotlari va ta‘limga qaratgan e‘tibori ham ana shu ruhani qayta jonlantirishga xizmat qiladi. Chunki kelajakda yangi O‘zbekistonning qudrati ilmi, izlanuvchan va mas’uliyatli yoshlar ko‘lida bo‘ladi.

O‘zbekistonning geografik taqdiri va undan kelib chiqqan saboqlar

O‘zbekiston joylashuvi haqida gapirganda ko‘pincha “Markaziy Osiyoning chorrahasi, markazi, yuragi”, deya g‘urur bilan ta’kidlaymiz. Bu ta’rif ayrim jihatdan to’g’ri bo’lishi mumkin, biroq bizingcha, mamlakatimiz geografik joylashuvi bir vaqtning o’zida katta sinov hamdir. Chunki O‘zbekiston dunyodagi dengizga chiqish imkoniyati yo‘q yirik davlatlardan biri. Qariyb 38 million aholi yashaydigan bu yurt barcha mahsulot aylanmasi, import va eksport jarayonlarini amalga oshirish uchun kamida uchta davlat orqali dengiz yo‘llariga chiqishga majbur.

Bu holat tabiiy ravishda iqtisodiyotimizga ham ta’sir qiladi. Yo‘llar yopilgani yoki qo‘shni mamlakatlardagi ziddiyatlar sabab bittagina konteyner mahsulotning narxi ikki barobarga oshishi mumkin. Bu esa logistika xarajatlarini ko‘paytirib, iqtisodiy o‘shishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, O‘zbekistonning har bir qadamli faqat ichki islohotlar bilan emas, balki tashqi munosabatlar va qo‘shnichilik siyosatini ham puxta o‘ylashga chorlaydi.

Asrlar davomida bu muammolarga tarixiy yechim sifatida Buyuk ipak yo‘li xizmat qilgan. U Sharq va G‘arbni bog‘lab turgan buyuk moy’jiza edi: savdo orqali nafaqat mahsulotlar, balki g‘oyalar, ilm-ma‘rifat va madaniyatlar almashgan. O‘sha zamonlarda ipak yo‘li internet vazifasini bajargan, dunyo sivilizatsiyasini uyg‘un rivojlantirgan. Biroq Vasko da Gama va uning zamondoshlari suv yo‘llarini ochgach, quruqlik orqali savdo ahamiyatini yo‘qotdi. Chunki suv yo‘llari ham arzon, ham qulay edi.

Mana shu yo‘qotishlardan keyin mintaqamiz sekin-asta kuchdan qoldi. Bu esa keyingi asrlarda boshqa kuchlar tomonidan bosib olinishimiz va bo‘linib ketishimiz sabablaridan biri bo‘ldi. Ammo tarix bir narsani ko‘rsatdi: **geografik holat taqdir bo‘lishi mumkin, ammo undan to‘g‘ri saboq chiqargan xalq o‘z yo‘lini topa oladi**.

O‘zbekning dengizi — bilimi

Albatta, o‘zbeklarning najoti ilm va tafakkurda. Unutmashimiz kerak: biz uchun eng katta dengiz bu — bilimlar olami. Bugungi o‘zbek yoshlari uchun haqiqiy boylik ham, imkoniyatlar dunyosi ham ularning aqli, zakovatidadir. Chunki bizga najot beradigan quvvat nafaqat tabiiy resurslar, balki, eng avvalo, bilim va ma‘rifatdir. Ota-bobalarimiz

“Bilimga yo‘g‘rilgan hunar ham baraka beradi” deb bejiz aytmagan.

Agar aql bilan ish yuritsak, Rishtonning sopolini, iroqi to‘qimachilaridan meros kashta va ipak zardo‘zligi san’atini, milliy mahsulotlarimizni dunyoning istalgan nuqtasiga yetkazishimiz mumkin. Buning uchun katta infratuzilmalarga bog‘liq bo‘lib o‘tirish shart emas, internetning o‘zi biz uchun yangi ipak yo‘li.

Shuning uchun aytamizki: O‘zbekiston yoshlari uchun **internet yangi dengiz, bilim esa uning kemasidir**. Keraklisi aql, yaratuvcchan fikr va harakat. Shu bilangina biz o‘z orzu va maqsadlarimiz sohligiga yeta olamiz.

O‘zbek xalqi asrlar davomida mehnatsevarligi, hunarmandchiligi, tadbirkorligi va madaniy dunyoqarashi bilan olamga tanilgan. Bizing qo‘limizdan chiqqan sopol, ipak, zargariik, qurilish va san’at namunalari hamisha xalqlar orasida havas uyg‘otgan. Shundan bilish mumkinki, yuzaga chiqishning haqiqiy yo‘li hech qachon oson bo‘lmagan — u sabr, izchil mehnat va intilish bilan qo‘lga kiritilgan. Shuning uchun ham bugun qiyinchilik qanchalik katta bo‘lmasin, biz shunchalik harakat qilishimiz, oyoqqa turish va yuksalishga intilishimiz shart.

Biz doim o‘zimizni boshqalar: Amerika, Yevropa davlatlari, Yaponiya va Turkiya bilan qiyoslaymiz. Lekin nazarimizda, bu unchalik to‘g‘ri emas. Agar taqqoslash zarur bo‘lsa, eng adolatli o‘lchimizni kechagi holatimiz bilan baholashdir. Oldin qanday edik, bugun nimaga erishdik, ertaga qanday bo‘lishimiz mumkin? Ana shunday qiyos haqiqiy taraqqiyotning mezonini bo‘ladi. **Chunki taraqqiyotning haqiqiy mezonini jamiyatning kechagi holatidan oldinga qadam tashlashi, sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tishidadir**.

Tariximizga nazar tashlasak, qachon hozirgidek erkin bo‘lganmiz? Qachon o‘z taqdirimizga o‘zimiz egalik qilganmiz? Qachon faqat amriyasi yoki pastasi, tabiiy boyliklari uchungina emas, balki xalqining irodasi va salohiyati uchun qadrlangan millat bo‘lganmiz? Bugun biz ana shu savollarga ochiq javob topaypmiz.

Aytish lozimki, mustaqillikning haqiqiy mazmuniga yetib borish uchun

Taraqqiyot mezonlari



ZAMONAVIY METROLOGIYA XIZMATLARI

YURTIMIZDA ILK BOR MILLIY ETALONLAR ISHLAB CHIQRILADI

O‘zbekiston 2026-yilga qadar dunyodagi eng yirik tuzilmalardan biri — Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishni maqsad qilgan. Bu sayyoramizdagi davlatlarning 97 foizini qamrab oluvchi tashkilot orqali yirik jahon bozoriga kirib borish imkoniyati degani. Mazkur bozor mamlakatimiz iqtisodiy rivoji, sanoat tarmoqlaridagi ishlab chiqarish quvvatining karrasiga oshishi hamda eksport hajmi o‘shishida muhim omildir. Ya’ni o‘z mahsulotlarimizni dunyoning deyarli barcha mamlakatiga sotish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.



Lazizbek SAIDORPOV,
O‘zbekiston texnik jihatdan
tartibga solish agentligi
huzuridagi O‘zbekiston Milliy
metrologiya instituti direktori

Faqat buning uchun mahsulotlar sifati, yetkazib berish tartib-qoidolari ham xalqaro talablar, standartlarga mos kelishi kerak. Ayniqsa, jahon iqtisodiyotidagi murakkab vaziyat, jahon bozoridagi raqobat muhiti, narx-navo tebranishlari sharoitida xalqaro sifat va standart ko‘rsatkichlariga talab yanada ortmoqda. Eksport hajmini oshirishni istagan davlatning esa ana shu talablarga moslashishiga to‘g‘ri keladi.

Keyingi sakkiz yil tahlil qilinsa, mamlakatimizdagi barcha sohada ishlab chiqarish quvvati ham, eksport hajmi ham keskin oshib borayotgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birgina oziq-ovqat eksporti joriy yilning yarim yilligida 44 foiz o‘shib, 1 milliard 326 million dollar bo‘lgani fikrimiz isbotidir. Sanoat tarmoqlarida eksport ko‘rsatkichi yuqorilab, geografiyasi kengayib boryapti. Bu yurtimizda eksportni rivojlantirish harakati ibidosi sifatida tadbirkor va ishlab chiqaruvchilar faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish, mahalliy va jahon bozori talablarini o‘zaro uyg‘unlashtirish, xalqaro sifat tizimlarini joriy etishga katta e‘tibor qaratilayotgani bilan ham bog‘liq.

Keyingi yillarda mamlakatimizda o‘nlab xalqaro standartlar joriy etildi. Xorijiy standartlashtirish tashkilotlari bilan muntazam litsenziya shartnomalari imzolanyapti. Ularning 30 dan ortiq (ISO, IEC va MGS) texnik qo‘mitasiga a‘zo bo‘lindi. Yevropaning GSP+ dasturiga ham qo‘shildik. Bu sa‘y-harakatlar, birinchi navbatda, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini xalqaro, xususan, Yevropa standartlariga moslashtirish orqali eksport hajmini oshirish, o‘zbek brendining dunyo bozorida munosib o‘rin egallashini ta‘minlashga qaratilgan.

Bu jarayonlarda, xususan, yangi O‘zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishida boshqa sohalar qatori texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlash va metrologiya sohasi muhim o‘rin tuta boshladi. Keyingi yillarda mazkur sohalarida izchil islohotlar olib borilayotgani boisi shunda. Jumladan, O‘zbekiston Milliy metrologiya instituti faoliyatida eksportbop mahsulotlarni jahon standartlariga muvofiq tekshirish, metrologik jihatdan va xalqaro darajada e‘tirof etilishini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Joriy yilning dastlabki olti oyida institut tomonidan milliy etalonlar bazasini rivojlantirish, laboratoriyalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, mamlakat bo‘ylab sifati metrologiya xizmatlarini ko‘rsatish singari qator muhim loyihalar hayotga tatbiq etildi. Mazkur davrda 6 ta yangi etalon xarid qilinib, institutdagi etalonlar soni 35 taga yetkazildi. Yil oxiriga qadar umumiy qiymati 70,7 milliard so‘mga teng 9 ta yangi etalon xarid qilinishi rejalashtirilgan. Bu etalonlardan nafaqat yurtimiz, balki mintaqaviy miqyosda ham keng foydalaniladi.

Yevropa tashkilotiga a‘zolik

Bu o‘rinda sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini o‘rganish, xalqaro me‘yorlarga moslashtirish, o‘lchash vositalaridagi aniqlikni ta‘minlash haqida gap boryapti. Masalan, standart bu — har bir mahsulotga qo‘yiladigan me‘yoriy sifat talabi. Standartlashtirish esa barcha mahsulot turi, rusumlari, parametrlari, o‘lchamlari va sifati bo‘yicha hamda ishlab chiqarish texnologiyasi, sinash va nazorat qilish uslub, mahsulotni joylash, rusumlash, saqlash va boshqalarga me‘yoriy birlik o‘rnatishni anglatadi.

Mahsulot yoki xizmat ko‘rsatish sifatini ta‘minlashda o‘lchash qurilmalari sozligi nazorati ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, tarozini olaylik. Ishlab chiqaruvchining zavodda noto‘g‘ri ishlaydigan tarozidan foydalanishi nafaqat mahsulot hajmi, balki sifatiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish jarayonida tarozidagi xatolik sabab ko‘proq xomashyo qo‘shilib, kam mahsulot tayyorlansa, bundan tadbirkor jiddiy zarar ko‘radi. Yoki aksincha, kam xomashyo ishlatib, ko‘p mahsulot chiqarilsa, sifat buziladi va iste‘molchiga zarar bo‘ladi.

Shu bois, standart talablarida o‘lchash qurilmalarining to‘g‘ri ishlashiga oid mezonlar bor. Bunday qurilmalarning aniqligi xalqaro bozorga chiqishda ham muhim. Eksportyor jo‘natayotgan mahsulot hajmi importyormiki bilan mos kelishi kerak. Aks holda, jiddiy muammolar yuzaga keladi. Oddiy misol, mahalliy bozorda ham buzuv tarozi tadbirkorga yoki xaridorga zarar keltirishini yaxshi bilamiz. Odatda iste‘molchilar



tarozilarning to‘g‘ri o‘lchashiga shubha qiladi. Buni nazorat qilish imkoni bor-yo‘qligi bilan qiziqadi. Albatta, buning nazorati tegishli huquqiy hujjatlar bilan belgilanib, o‘lchash qurilmalarini tekshiruvdan o‘tkazish tartibi belgilangan.

Yurtimizda metrologik xizmat ko‘rsatish darajasi son va sifat jihatidan oshib boryapti. Metrologiya ilmiy tilda “o‘lchashlar haqidagi fan” ma‘nosini anglatadi. Oddiy qilib tushuntirganda, u hayotimizda tushuntirganda, u hayotimizda uchraydigan barcha o‘lchash uskunalarining aniqligini o‘lchovlar orqali nazorat qiladi. Bular biz kundalik hayotda foydalanadigan maishiy hisoblagichlardan tortib, bozordagi tarozilar, ob-havoni o‘lchash uskunalar, sanoatda qo‘llanadigan juda murakkab o‘lchov vositalari va boshqalarni qamrab oladi. Metrologiya sohasi esa o‘lchash bilan bog‘liq barcha jarayonni qonuniy va ilmiy jihatdan amaliyotda qo‘llanishini ta‘minlaydi.



“ 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun tegishli dastur tuzilgan. Hozir Milliy metrologiya institutida 35 ta etalon mavjud bo‘lib, 29 tasi ro‘yxatdan o‘tgan. Yil oxirigacha 40 ga yaqin etalon ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Bugun Milliy metrologiya instituti shu yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirib kelmoqda. Ayni paytda metrologik xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha yurtimizdagi asosiy tashkilot sanaladi. Joriy yilning birinchi yarmida institut tomonidan 471,9 ming dollarlik metrologiya xizmati ko‘rsatildi. Bu rejadan 6,5 foiz ortiq natija bo‘lib, milliy xizmatlar xalqaro bozorda ham talabga ega ekanini ko‘rsatmoqda. Yil yakuniga qadar ushbu ko‘rsatkichni 761 ming dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Xizmatlarni xalqaro talablar darajasida ko‘rsatish maqsadida laboratoriyalar

Endi O‘zbekiston Milliy metrologiya instituti yana bir xalqaro tashkilot a‘zosi bo‘ldi va EURAMET faoliyatida Markaziy Osiyodagi yagona hamkor tashkilot — a‘zo sifatida ishtirok etmoqda.

EURAMET tashkiloti metrologiya sohasidagi ilmiy tadqiqot dasturlarini amalga oshirishda katta nufuzga ega bo‘lib, Yevropaning yagona metrologiya maydonini shakllantiradi. Mazkur tashkilotga qo‘shilish bizga milliy etalonlarni solishtirish loyihalarida to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etish, Yevropa mintaqasida ilmiy tadqiqot hamda xodimlarning texnik salohiyatini oshirish dasturlarida ishtirok etish imkonini beradi.

Bu yo‘nalishdagi ishlarimiz milliy qonunchilik bilan ham mustahkamlab borilmoqda. Jumladan, shu yil 10-iyulda Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi majlisida “Xalqaro metrik konvensiyaga (1875-yil 20-mayda Parijda qabul qilingan, keyingi yillardagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi dastlabki muhokamadan o‘tkazildi. Mazkur konvensiyaning asosiy maqsadi barcha davlatlar uchun o‘lchov birligini ta‘minlovchi umumiy va ishonchli etalonlar tizimini yaratish, ularni xalqaro prototiplar bilan qiyoslash va tan olish mexanizmlarini shakllantirish orqali davlatlar o‘rtasidagi texnik hamkorlikni mustahkamlashdan iborat.

Qonun qabul qilinsa, O‘zbekiston Xalqaro tarozilar va o‘lchovlar byurosi faoliyatida to‘liq ishtirok etish, ovoz berish, nomzodlarni saylovga taqdim etish, laboratoriyalardan foydalanish va mutaxassislarni tayyorlashda yangi imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, etalonlarni byuro laboratoriyalarida naviy asosida va qo‘shimcha xarajatlarisiz kalibrash ham mumkin. Mazkur a‘zolik mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayonida texnik to‘siqlarni bartaraf etish, tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.



Shu kabi xalqaro harakatlar O‘zbekiston Milliy metrologiya institutining ilmiy faoliyati uchun ham muhim. Boisi, ilmiy muassasa metrologik xizmatlar ko‘rsatish, ularni xalqaro standartlar talablariga moslashtirish bilan birga o‘lchash yo‘nalishida ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanadi. Buning uchun institut ilmiy tadqiqot salohiyati doimiy oshirib borilmoqda. Hozir falsafa doktori (PhD) darajasidagi 38

mustaqil tadqiqotchi faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, doktorantura va tayanch doktorantura tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Xorijiy mamlakatlarda o‘qish va malaka oshirish ishlari ham izchillik bilan davom ettirilmoqda.

Yuqori aniqlikda o‘lchash uskunasi

O‘lchov vositalaridan hamma joyda foydalaniladi. O‘zbekiston Milliy metrologiya institutida ana shu o‘lchash uskunalarining aniqligini tekshirib berish xizmati ko‘rsatiladi. Bu vazifa yuqori aniqlikdagi o‘lchash laboratoriyalarida kalibrash yoki qiyoslash usullari yordamida amalga oshiriladi. Qonunosti hujjatlar bilan jarayonning barchasi tartibga solingan. Hukumatning tegishli qarori bilan metrologiya xizmatlarini ko‘rsatishning qiyoslashlararo intervali belgilangan bo‘lib, odatda o‘lchash vositalarini tekshiruvdan o‘tkazish muddati uskuna turiga qarab amalga oshiriladi. Aksariyat o‘lchash vositalari uchun bu muddat bir yilda bir marta etib ko‘rsatilgan. Lekin zararli sharoitlar, noqulay ob-havoda ishlaladigan o‘lchash vositalari yarim yilda bir marta tekshiruvdan o‘tkazilishi kerak. Faoliyatida o‘lchash uskunalaridan foydalanadigan ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchilar qurilmaning aniqligini muntazam ta‘minlashi lozim. Boisi, bu iste‘molchi huquqi, mahsulot sifati, hatto inson salomatligi bilan bog‘liq masaladir. Misol uchun, tibbiyotdagi biror o‘lchash uskunasi ishdan chiqishi bemorga noto‘g‘ri tashxis qo‘yilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, o‘lchash qurilmalarining to‘g‘ri ishlashidan, avvalo, tadbirkorning o‘zi manfaatdor. Hatto ayrim faoliyat turlarini litsenziyalashda o‘lchash talablari belgilangan.

Institut asosan sanoat tarmoqlaridagi o‘lchash vositalarini nazorat qiladi. O‘lchash uskunalarining aniqligini tekshirish uchun esa laboratoriyalardagi etalonlardan foydalaniladi. Aslida, etalon ham o‘lchash qurilmasi. Faqat u maishiy va sanoat o‘lchash vositasiga nisbatan 3, 6, 9-10 barobar aniqroq bo‘lgan uskunadir. Ilmiy ta‘rifga ko‘ra esa etalon texnologik jihatdan murakkab, fizik kattaligni o‘zida hosil qilib, saqlab, uzatadigan vosita. Agar sanoat korxonasidagi o‘lchash qurilmasi etalon ko‘rsatkichlari bilan to‘g‘ri kelmasa, imkoni bo‘lsa, tuzatiladi, bo‘lmasa, muamaldan chiqariladi.

O‘lchash uskunalarini turlicha bo‘lgani kabi ularning aniqligini ta‘minlaydigan etalonlar ham

o‘zimizda bo‘lmasa, ishlab chiqaruvchi xorijiy metrologiya xizmatlariga murojaat qiladi. Bu ancha ko‘p vaqt, katta mablag‘ talab qiladi. Boshqa jihatdan sanoatda biror o‘lchash turiga ehtiyoj bo‘lmasa, narxi juda qimmat turadigan etalonni chetdan olib kelishga zarurat ham qolmaydi.

Mamlakatimiz sanoati keyingi yillarda keskin rivojlanib, ko‘p tarmoqli yo‘nalishga aylangani sir emas. To‘qimachilikdan tortib, elektrotexnika, metallurgiya, telekommunikatsiya kabi qator sohalarida mahalliyashtirish ko‘rsatkichi ham oshib boryapti. Demak, sanoatimizda etalonlar soni va turini ko‘paytirishga zarurat bor. Shu bois, yurtimizda etalonlar sonini oshirish vazifasi belgilanib, 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun tegishli dastur tuzilgan. Hozir Milliy metrologiya institutida 35 ta etalon mavjud bo‘lib, 29 tasi ro‘yxatdan o‘tgan. Yil oxirigacha 40 ga yaqin etalon ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Etalonlarning ko‘pligi, zamonaviyligi boshqa davlatlarga ham xizmat ko‘rsatish imkonini beradi. Hozir Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmanistonga harorat, bosim, kuchni o‘lchash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsata boshladik. Bu qo‘shimcha daromad keltiradi.

Institut laboratoriyasidagi etalonlar, asosan, Yevropa mamlakatlari, qisman Rossiya, Osiyo davlatlari, AQSHdan olib kelingan. Mazkur etalonlardan sanoat tarmoqlari, turli sohalaridagi o‘lchash uskunalarining aniqligini tekshirishda foydalanib kelinmoqda. Masalan, vaqtni aniqlaydigan etalonimizdan olingan ma‘lumotlarni internet provayder, mobil operator, televideniye va boshqalarga uzatamiz. Jarayonda etalonlarning ham aniqligini ta‘minlab borish talab etiladi va bu qurilmalarni xorijiy davlatlarniki bilan solishtirib boramiz.

Bunday loyihaga tarixda ilk bor mablag‘ ajratildi

2018-yilda Milliy metrologiya instituti tashkil etilganiga qadar etalonlar soni atigi 9 ta bo‘lgan. Metrologiya xizmatlarini ham tarqoq holda 3 ta tashkilot ko‘rsatgan. Etalonlar sonini ko‘paytirish, ilmiy jihatdan asoslash, sanoatga bog‘lash, xalqaro darajada solishtirish ishlari bajarilgan. Milliy metrologiya instituti tashkil etilib, barcha metrologik xizmatlar bir nuqtada birlashtirilgach, ilmiy tadqiqotlarga ham keng yo‘l ochilayotgani ushbu yo‘nalishda yurtimizdagi katta islohotlardan biridir.

Institut olimlari bu borada doimiy izlanishda. Tadqiqotlar orqali etalonlarga qo‘shimchalar kiritish, foydalanishda yangi usullarni yaratish mumkin. Qolaversa, yurtimizda birinchi marta etalonlarni mahalliyashtirish, ya’ni o‘zimizda ishlab chiqarish ustida ishlanyapti. Tarixda ilk bor 7 ta etalon yaratish bo‘yicha davlat byudjetidan katta mablag‘ ajratildi. Innovatsion rivojlantirish agentligi tomonidan ilmiy loyiha sifatida e‘lon qilinib, shundan 2 tasini institutimiz olimlari qo‘lga kiritdi. Ayni paytda olimlarimiz ana shu ilmiy loyiha ustida ishlapyapti. Unga ko‘ra, ikki yilda 2 ta milliy etalon yaratishimiz kerak. Ishlar Rossiya, Turkiya, Italiya olimlari bilan hamkorlikda bajariladi. Bu bilan mamlakatimizda milliy etalonni yaratish tajribasi yo‘lga qo‘yildi. Sanoqli davrlardagida ishlab chiqariladigan mazkur qurilmalarni yaratish orqali qo‘shni davlatlarga eksportini amalga oshirish, metrologik xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish mumkin.

Umuman, metrologik xizmat ko‘rsatish sohasi yangi O‘zbekistondagi islohotlar, maqsad va vazifalarga mos tarzda kengayib bormoqda. Bularni tizimlashtirish, xizmatlar sifatini yanada oshirish maqsadida jarayonni to‘liq raqamlashtirish, shaffoflikni ta‘minlash ushda ishlanyapti. Endi tashkilot tizimidagi kiruvchi hujjatdan chiquvchi hujjatgacha bo‘lgan oraliqdagi barcha jarayonni tadbirkorlar kuzatib borishi mumkin. Buning uchun yil boshida “E-metrologiya” platformasi joriy qilindi. Ayni paytda platforma tizimidagi boshqa korxona-tashkilotlar bilan integratsiya qilinib, portal sifatida takomillashtirish ishlari davom ettirilayapti. Yil oxirigacha to‘liq ishga tushadi.

Raqamlashtirishning yana bir afzalligi, tizimdagi barcha ma‘lumot bir joyda jamlanadi. Yurtimizdagi o‘lchash vositalari, ularning turi, holati, ishlab chiqarilgan davlati, yurtimizning qaysi hududida ko‘proq foydalanilayotgani bo‘yicha ma‘lumotlar bazasi shakllantiriladi. Avvallari bularning hammasi qog‘ozda bo‘lardi. Ularni hisoblab, tahlil qilishga ancha vaqt ketardi. Raqamlashtirish esa bu ishlarni to‘liq yengillashtiradi.

Ushbu vazifalarning barchasi metrologik xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan. Oldimizga qo‘yilgan boshqa vazifalar ham ko‘p. Xususan, joriy yil yakuniga qadar zamonaviy maxsus mobil laboratoriya xarid qilindi, institutning Chirchiq filialida qaz qorishmalarini ishlab chiqarish bo‘yicha innovatsion laboratoriya tashkil etish, Chexiyadan yuqori aniqlikdagi 14 ta o‘lchash vositasini olib kelish rejalashtirilgan.

“

Metrologiya ilmiy tilda “o‘lchashlar haqidagi fan” ma‘nosini anglatadi. Oddiy qilib tushuntirganda, u hayotimizda uchraydigan barcha o‘lchash uskunalarining aniqligini o‘lchovlar orqali nazorat qiladi. Bular biz kundalik hayotda foydalanadigan maishiy hisoblagichlardan tortib, bozordagi tarozilar, ob-havoni o‘lchash uskunalar, sanoatda qo‘llanadigan juda murakkab o‘lchov vositalari va boshqalarni qamrab oladi.



VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

Qirlaringda qiyqiradi chavandozlar,
Soylaringda kokil yuvar sarvinozlar,
Bayrog'imd qanot qoqar yurak rozlar,
Biz birlashdik, jonlar bo'lsin poyandozlar,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun.

Toshni yorgan maysadirmiz, bahordirmiz,
Dardli qo'shiq, dostondirmiz, izhordirmiz,
Or talashgan Alpomishimiz, bahodirmiz,
Dunyo bedorniki ekan — bedordirmiz,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun.

Torga — toru kengga — kengniki dunyo,
Nafs qulimas, nafsiga bekniki dunyo,
Ko'nglimiz to'g, demak, o'zbekniki dunyo,
Sodiqdirmiz ikki dunyo, ikki dunyo,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun.

Bir bog' ochdik "G'alaba bog'i" dir u,
Fidoyilar qaytgan bahor chog'idir u,
Yuraklarda o'sgan faxr tog'idir u,
Bog'i jannat, jannatning chorbog'idir u,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun.

Sherlar bilan sher kiradi muloqotga,
Joy qoldirmas xusumatga, adovatga,
Ajdar bilan til topishib favqulodda,
Yurt chaqirsa, million yigit chiqar otga,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun.

Ortga qaytmas yo'lbarslarim, arslonlarim,
Yurt bayrog'in yig'lab o'pgan mardonlarim,
Joi kelsa jiddiyalarim, xandonlarim,
Shaxmatchilar, futbolchilar, sultonlarim,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun.

"Afrosiyob" Samarqandga yelgan chog'lar,
Jaloliddin Xorazmga qaytgan chog'lar,
Gul shaharlar, gul qishloqlar dilni chog'lar,
Yuraklarda ildiz otgan yangi bog'lar,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun.

Hunarmandlar festivali, qovun sayli,
Atlas sayli, gullar sayli, lola sayli,
"Temuriylar keldi!", qiyqiriqlar, mayli,
Bular bari baxt tufayli, baxt tufayli,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun.

Bilmaganlar kimligimiz bilib kelar,
Bilganidan ziyoratlar qilib kelar,
Ketdik deya, tog'larni yurgizib kelar,
Bu kunlarga qanday yetdik, xudo bilar,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun.

Bu kunlarga O'zbekiston qanday yetdi?
Jadid boshin kundalarga berib yetdi,
Qatag'onlar, qurbonlarni ko'rib yetdi,
O'q yesa-da, o'rnidan tik turib yetdi,
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun.

Vatan so'zin jon olib ayt, jon berib ayt,
Qo'rdayin tuprog'iga jim kirib ayt,
Yomg'irdayin yog'ilib ayt, bosh urib ayt,
Yashashigdan maqsad na deb, so'rasa, ayt —
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun.

Zulfiya MO'MINOVA

2025-yil 23-avgust, 172-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official

yuz.uz_news



yuz_uz

YANGI O'ZBEKISTON



Uyg'oq fikr



MANGU GULLASIN TINCHLIK DARAXTI (Esse)

Dunyodan bir navo keladi:

— Tinchlik, tinchlik, tinchlik!

Xalqlardan bir nido keladi:

— Tinchlik, tinchlik, tinchlik!

Yer-u osmondan xitob keladi:

— Tinchlik, tinchlik, tinchlik!

Tog'-u dashtdan sabo keladi:

— Tinchlik, tinchlik, tinchlik!

Insoniyat yuragidan sado keladi:

— Tinchlik, tinchlik, tinchlik!

Ha, odam bolasi yaralibdiki, har lahza, har tong tinchlikka tashna yashaydi, faqat osuda osmon ostida nafas olishni istaydi. U xotirjamlikka go'yo quyoshga talpingandek intiladi, o'ngida ham, tushida ham tinchlik quyoshi porlab turishini chin dildan xohlaydi. Urushdan hatto quyosh ham ozor chekishini anglab eziladi.

U tinchlikni mehribon ota-onasidek, jon-jigari bo'lgan farzandidek chin yurakdan yaxshi ko'radi.

Tinchlik tabiat kabi insonning jonu jahoni, osoyishta va farovon hayotidir.

— Beshikda yotgan go'daklarning ma'sum ko'zida, beg'ubor kulgisida nima aks etgan?

— Tinchlik!

— Onalarning har kungi iltijosida, otalarning orzu-niyatida nima mujassam?

— Tinchlik!

— Bobolarning duosida, momolarning allasida hamisha aytiladigan birinchi kalom qaysi so'z?

— Tinchlik!

Tog'ning ulkan cho'qqisidagi burgutga ham, polaponlariga tumshug'ida suv tashiyotgan qaldirg'ochga ham, suvdagi baliqqa ham osoyishtalik kerak. Maysalar, nihollar, daraxtlarga ham omonlik zarur. Tabiat esa tinchlik bilan barhayot, u tufayli gullab-yashnaydi.

Inson va tinchlik, inson va urush mavzulari ming-ming yillik tarix sahifalarida bahs-munozara uyg'otib keladi. Shoir aytganidek, bu ikki to'lqin hamon kurashda:

Tinchlik — jon deydi, urush esa qon,

Tinchlik — hayot deydi, urush esa qurbon.

Tinchlik — mehnat deydi, urush esa kulfat,

Tinchlik — obod deydi, urush esa vayron.

Tarix urushlardan zada bo'ldi, benihoya charchadi.

Odam nega urush qiladi, nega uni o'ylab topadi?

Nahotki inson dunyoga urush, qon to'kish va vayron qilish uchun kelgan? Tarix hali-hanuz bu savollarga javob topgani yo'q.

Hali-hanuz inson va urush muammosi uzil-kesil hal etilmagan. Bir yonda qo'lida qurol tutgan odam, bir yonda esa qonsiragan urush.


Agar beshik tepasiga qarag'a kelib qo'nsa, qog'ilab beshikdagi go'dakning oromini buzadi. Agar uyga bexosdan ilon kirs, tamom, uydagilarning xotirjamligi yo'qoladi. Agar qishloqqa bo'ri oralasa, odamlarning tinchligi buzilishi muqarrar. Shunda odamlar darhol mol-holini, bola-chaqasini himoya qilishga kirishadi.

Agar Vatanga dushman ko'z olaytirs, yurt osoyishtaligi xavf ostida qoladi. Bordi-yu, dushman ichingdan chiqsa, tinchlikning holi yanada tang bo'ladi. Bunday xavfli dushmandan Yaratganning o'zi asrasin!

Har davmning, har zamonning o'z kushandasi bo'lganidek, bugungi dunyoning eng xatari balosi terrorizm bo'ldi. U kulfatlar zanjiriga, eng dahshatli urushlarning o'chog'iga aylandi. XX asr tarixga "atom asi" sifatida kiritilgan bo'lsa, XXI asr boshlanishiyiq terrorizm tamg'asi bilan muhrlandi. Terrorizm ekstremistik guruhlarning ashaddiy quroliga aylandi. Ular bu qurol bilan tinch dunyoni buzish, shaharlarni vayron qilish va yuraklarga g'ulg'ula solishga harakat qilmoqda.

Buzg'unchilar islom tinchlik, osoyishtalik va insonparvarlik dini ekanini bila turib, bu buyuk bo'lganiga qo'rquv solmoqda. Lekin tinchlik terrorchilarga hech qachon taslim bo'lmaydi, ularning dag'dag'asidan cho'chimaydi...

Jaholat ildiz otgan muhitda osudalik kabutari in qura olmaydi. Lekin jaholat har qancha g'azab otiga minmasin, har qancha dahshat solmasin, baribir sakinat shiddatini to'xtata olmaydi, uning yo'lga g'ov bo'lolmaydi, epkinlarini to'solmaydi.



"TUSHLARIMGA KIRIB TUR, BOLAM..."

Farg'ona shahri "Iftixor" mahalla fuqarolar yig'inida tug'ilib, kamolga yetgan Dilshod Asanov Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi tog'li hududlarda terrorchilarga qarshi kechgan jangda qahramonlaracha halok bo'lgan. Mash'um voqea bundan chorak asr avval ro'y bergan bo'lsa-da, mard o'g'lonlarning Vatan sarhadlarini mustahkamlash, bosqinchilardan tozalash yo'lidagi qahramonligi unutilmaydi.

Batartib, chog'roq hovliga qadam qo'yar ekanimiz, dimog'imizga saday hayvon ifori uradi. Yurfa gullar yoz epkinida bosh chayqab salom bergandek bo'ladi go'yo. Saranjom-sarishta bu hovlida Dilshodning yorqin xotirasi muhrlanib qolgan. Hovli sahnidagi uzumlar quyoshda tovlanadi. U ana shu uzumlar g'arq pishgan pallada ta'tilga kelishni va singilining to'yini yaqinlari bilan birga o'tkazishni maqsad qilgandi...

— Kelinglar, xush kelibsizlar, — deya ochiq chehrali Xolida aya ichkariga chorladi. Dilbandidan erta ayrilgan mushfiq ona xiyol titiroq ovozda o'g'li va barcha o'tganlarni xotirlab, el-yurtga omonlik so'rab duo qildi. Ona dilini farzand sog'inchi, iztirobi qiynaydi. O'qin-o'qin yo'tal tutadi. Lekin sir boy bermaslikka, o'zini bardam, o'ktam tutishga harakat qiladi.

— Hayot bo'lganida o'g'lim bu yil 50 yoshga to'lgan bo'lardi, — deya xotirlaydi aya ko'z

yoshini yengiga artib. — Bolaligidan og'ir-vazmin, qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan, harakatchan edi. Dadasi avtokorxonada haydovchi, men aeroportda oshpaz bo'lib ishlardim. Dilshod to'ng'ich farzandimiz bo'lgani uchun ukalarini unga ishonib, ishga ketardik. Ishdan qaytganimda hamma narsa joy-joyida, ahil-inoqlikda ukalariga bosh bo'lib o'tirganini ko'rdim. O'g'lim kichikligidayoq har bir ishga mas'uliyat bilan qarash, aytilgan ishni o'z vaqtida bajarishga odatlangandi. Afsus, bo'yi bo'yingga teng farzandning yo'qotish og'ir bo'larkan. Orzu-umidlari bir olam edi.



Dilshod maktabda o'qib yurgan kezaridanoq harbiy xizmatchi bo'lishni maqsad qildi. Bolalar sport maktabida erkin kurash bilan shug'ullanib, har jihatdan chinidiki. Bir necha bor shahar, viloyat miqyosidagi musobaqalarda sovrindor bo'ldi. Maktabni tamomlab, Farg'ona shahridagi 13-kash-hunar maktabida chilangar-payvandchilikni o'rgandi. Ammo harbiy xizmatchi bo'lish maqsadi unga tinchlik bermadi. Ko'ngillilar qatori muddatli harbiy xizmatga bordi. Xizmat davomida tirishqoqlik, ziyrakligi, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajara olishi bilan komandir va qurol-doshlari orasida hurmat-e'tibor topdi. Muddatli xizmatdan so'ng havo desanti qo'shinlarida xizmatni davom ettirdi.

Harbiylikka xos fazilatlar unga begona emas edi. Amakisi mayor Qutbiddin Asanov uzoq yillar yurt tinchligi yo'lida sidqidildan xizmat qilib iste'foga chiqqan. Dilshod ana shu muzaffar va sharaflı yo'ldan borishga qaror qilgan, kerak bo'lsa, jonini qurbon qilishga qodir, mard, jasur o'g'lon bo'lib kamolga yetgandi.

Xolida ayaga turfa savollar berib, eski yarasini yangilab qo'yganimdan xijolat bo'laman. "Uzr, dil yarangizni yangilayapmiz-da", deyman.

— Yo'q, unday demang, bu — eslash, xotirlash. Bolam xotirasi hanuz e'zozda ekanidan ko'nglim taskin topadi. Yo'qlab kelganingiz uchun rahmat. O'g'lim jisman oramizda bo'lmasa-da, qalbmizda yashayapti. Uning umri behuda ketmadi. Yurti va xalqining tinchligi, osoyishtaligi yo'lida mardlarcha

Mustaqilligimizning eng oliy ne'mati bu, shubhasiz, osoyishtaligidir. U mustahkamlab borganı sari hayotiy muammolar o'z-o'zidan yechimini topadi, jamiyatdagi kamchiliklar barham topaveradi.

Yurtimizdagi ulkan islohotlar, o'zgarishlar va yuksalishlar zamirida tinchlik ishonchli hamda qudratli tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. Uni barqaror saqlash oson vazifa emas! Bu yo'lda Yaratgan o'zi

madadkor bo'lsin!

Tinchlik bor ekan, millat yuksaladi.

Tinchlik bor ekan, yangi O'zbekiston obod bo'laveradi.

Tinchlik bor ekan, balo-qazo yaqinlashmaydi.

Tinchlik bor ekan, hurlik xatar ostida qolmaydi.

Mamlakatimizdagi ulkan o'zgarishlar, beqiyos islohotlar, kattayu kichik yuksalishlar va barcha sohada taraqqiyot zamirida buyuk ne'mat — osoyishtalik mujassam. Finlarda bunday maqol bor: "G'alala ham osudalikda hosil beradi".

Shaharlar obodligi tinchlik tufaylidir. Bu obod, ko'rkam shaharlarda yashash va o'qish osoyishtalik bilan uyg'unlashib ketgan. Ravon yo'llar, hashamatli ko'priklar ham shunga xizmat qilmoqda. Ko'chalarda odamlar go'yo bir-birining emas, xotirjamlikning qo'lidan tutib yurgandek emin-erkin kezadi. Go'daklar kulgisida, bolalar quvonchida tinchlik shukhi bor.

Dalalarda baxt shamoli esadi. Dehqonning ham, bog'bonning ham, cho'ponning ham asosiy niyati — tinchlik. O'zbekistonda osoyishtalik mustahkamlangani sari hosil cho'g'i baland bo'ladi, dehqonning daromadi ortadi, farzandlari farovon yashaydi.

Har kuni Yaratganga iltijo qilib, xotirjamligimiz barqaror bo'lishini so'raymiz. Osmonimiz musaffo bo'lishini istaymiz. Osudalik daraxtining hamisha, har doim ko'zlarni yashnatib, dillarni yayratib gullab turishini niyat qilamiz.

Vatandoshim, tinchlik daraxtini, avvalo, o'z qalbingizga eking. So'ng hovlingizga, mahallangiz va qishlog'ingizga qadag! Toki uning mustahkam ildizlari, ulkan shoxlari, yam-yashil barglari dunyoni tutsin, tinchliksevarlar qalbini zabt etsin. Xotirjamlik timsoliga aylansin!

Abadiy yashil bo'lsin, mangu gullasin tinchlik daraxti!

Taniqli shoir Omon Matjon yozganidek:

Yer ohista kezar ekan samoda,

Tinchlik degan zo'r ne'matga bosh egdim...

Siz ham osoyishtalikka astoydil talpining, unga ta'zim qiling. Bu noyob ne'matga bosh eging. Toki Yer yuzini omonlik ruhi, xotirjamlik sadosi tutsin! Tinchlik yallalari — mangu qo'shiq yangrasin, Yerning qulamas qo'rg'oniga aylansin!..

Ashurali JO'RAYEV,
publistist

jon berdi. Ming shukr, yaqinlari, qurol-dosh do'stlari tez-tez yo'qlab turadi. Yaqinda o'g'lim o'qigan maktab o'quvchilari o'zlari chizgan rasmini sovg'a qilib ketdi. Yonimda farzandlarim, nabiralalarim, yaqinlarim bor. Ularning ahilligidan, tinch-totuvligidan quvonaman, taskin-tasalli topaman. Ammo ko'ngil ekan-da, baribir to'ng'ichimni sog'inaman. "Tushlarimga kirib tur, bolam", deya tong otiraman...

Endigina kelin tushiraman deb turgan onaizorning mudhish judolikka dosh berishiga ana shu taskin, yaqinlarning mehr-oqibatı sabab bo'layotgan bo'lsa, ne ajab. Aytishlaricha, Dilshod qabrga qo'yilganidan so'ng u yerdan bir yilga qadar bir quchoq alvon gul arimagan ekan.

Hayot sinovlarida toblangan matonatli ona bilan suhbatlashib, Vatan tinchligi, yurt ravnaqi yo'lida jon fido qilgan mana shunday mard o'g'lonlarni kamolga yetkazgan ota-onalar siymosiga ta'zim qilaman.

Uy to'rida qahramonning hayot yo'li bilan bog'liq xotira burchagi tashkil etilibdi. Bu yerdan o'rin olgan kam, lekin qimmatli ma'lumotlar jasur yigitning qisqa, ammo sharaflı yo'li haqidagi taassurotlarimizni boyitishga imkon berdi. Ularga qarab hech qachon ko'rmagan, bilmagan inson bilan qadrdon, qondosh bo'lib qolganidek g'oyibona suhbatlashasiz.

Vatan ozodligi, tinchligi yo'lidagi qahramonliklar aslo unutilgani yo'q. Vafotidan keyin Dilshod Asanov bir necha bor orden va medallar bilan taqdirlandi. "Iftixor" mahalla fuqarolar yig'inidagi ko'chalardan biri uning nomi bilan ataladi.

— Sinf-dosh do'stimizning matonatı haqida o'quvchilarga tez-tez so'zlab beraman, — deydi Farg'ona shahridagi 25-maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Nafisa Sobirova. — U yaxshi xulqi, bilimdonligi, adolati, kuchsizlarni himoya qilishi, qolaversa, tashkilotchilik qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turardi. Hanuzgacha bu fazilatlarini yoshlarga namuna sifatida so'zlab beramiz. Maktabimizda "Jasorat" burchagi tashkil etilgan. Uning xotirasiga bag'ishlab turli sport bellashuvlari o'tkazish an'anaga aylangan. O'quvchilar bilan Dilshod Asanov yashagan xonadonga borib turamiz. Uning hayot yo'li bilan bog'liq xotiralarni eslaymiz.

Dilshod Asanov ta'lim olgan 25-maktab yangi o'quv yiliga mukammal ta'mirlandi, hovlisiga qahramon byusti o'rnatildi. Bu yodgorlik matonatli askar yodini ulug'lash, abadiylashtirish bilan birga yoshlar qalbiga vatanga muhabbat tuyg'ularini olib kirish, yurtga sodiqlik hissini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalari tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-846.
34930 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov
Musahhih: Asliddin Abdurazzaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy